

“YOSHLAR OROLNI ASRAYDI”

*Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti
Yurisprudensiya yo'nalishi.*

Muxammadov Muhammadali Sirodj o'g'li

Annotatsiya: *Orolning qadimgi tarixi o'tmish va yaqin kelajakdagi holati. Shuningdek Orol “ Markaziy Osiyo gavhari” deb ham yuritilgan. Chunki Orol dengizi orqali ko'plab savdo aloqalari yo'lga qo'yilgan edi. Ammo XXI asrga kelib Orol dengizi deyarli qurib tamom bo'ldi. Kimdirlar bunga iqlim o'zgarishi desa ko'pchilik orol dengizidan to'g'ri foydalanmaslik deb fikr bildirishgan. Xush shu paytda bizga turli xil savollar keladi. Orol dengizi qurishiga sabab nima edi? Orol dengizini qayta tiklasak bo'ladimi? Biz yosh avlod uni asrab qola olamizmi? Siz aziz mutolachi bilan suhbatimiz jarayonida shu mavzular yuzasidan gaplashamiz. Ammo keling birinchi navbatda Orol dengizining mavj bo'lib toshib oqqani haqida suhbatlashamiz.*

Ushbu maqolani o'qish orqali siz aziz yoshlar Orol dengizini qurishini oldini olishga doir takliflaringizni va tavsiyalaringsizni berishingiz mumkin bo'ladi. Keling, birgalikda Orolimizni asrab qolaylik bir yoqadan bosh chiqarib, kelajak avlod uchun ham o'z hissamizni qo'shaylik hurmatli aziz, bilimga chanqoq, serg'ayrat, ijodkor yigit-qizlar.

Qadimdan Orol tarixi haqida turli xil adabiyotlarda turli xil ma'nolarda qo'llanilganligi haqida juda ko'p ma'lumotlarga egamiz. Orolning qachon paydo bo'lganligi haqida bir qancha olimlarning fikrlari keltirilgan ularning fikricha orol 300-400 yildan oshmaydi, ba'zilar esa bunga 30-40 ming yil bo'lgan deyishgan. Uzoq o'tmishga nazar tashlasak Orol dengizi haqida turli yozma manbalarda uchratganmiz ya'ni milloddan avvalgi IX asrda yashagan arab olimi Ibn Xurdobex Amu-Sirdaryo “Kurdor “ko'liga quyilgan desa, X asrda yashagan Al- Ma'sudiy hozirgi Orol ko'lini “Jurjoniya”, Beruniy esa “Xorazm” ko'li deb atagan.

Orol dengizi IX asrda paydo bo'lgan. Abu Rayhon Beruniyning yozishicha “Turon zaminidagi eng katta Qora va Qizilqum sahrolari qachonlardir, bahri ummon ostida bo'lgan”. O'sha davrda Orol dengizi Tuyamo'yin darasidan Sulton Uvays tog'i, Shimoliy Qoraqum va Ustyurt hududlarini egallab turgan. Buning isboti shuki, o'tgan million yillar davomida turli geologik jarayonlar oqibatida, bahri ummon suvlari shimoliy- g'arbiy tomonlarga chekinib, Xazor (Kaspiy) dengizi, so'ngra esa Orol ko'li paydo bo'lgan



Fransuz geografi Delil 1723 yili


Tuzgan xaritasida Orol botig'ida joylashgan suv havzasini birinchi marta "Orol" deb nomlangan edi. Orol cho'kmasining ilk Amudaryo va Sirdaryo suvi bilan to'lishi eramizdan avvalgi 1-ming yillikning birinchi yarmida sodir bo'lgan deb aytishimiz mumkin. So'ngra tabiiy omillar ta'sirida (Amudaryo va Sirdaryo suvining ko'payib ozayib turishi natijasida) Orol dengizi suv sathi goh pasayib goh ko'tarilib turgan.

Tarixga nazar tashlasak; 1221- yillar- Mo'g'ullar Amudaryoni to'sib, Sariqamish-Kaspiyga dengiziga burib yuborishgan. Natijada Orol'da suv sathi 5-6 metrga kamaygan va chuqurligi 43-44 metrga teng bo'lgan.

1911-1960-yillarda Orol dengizi sathi 53,04 metrni tashkil etgan. Shuningdek daryolar dengizga quyadigan suv miqdori 56 km³ bo'lgan. 1970- yilda 34.5 km³ 1980- yilda 10.5 km³ suv oqib borgan.

Bugungi kunda dengizning yuzasi 38 foizga qisqargan va o'rtacha chuqurligi 17 metrga teng.

2000-2002 yillar – Amudaryo suvlari kamayib, qurg'oqchilik bo'ldi. Qishloq xo'jaligi hosildorligi 40-60 foizga kamaydi. 2005- yil Amudaryo suvlari yana toshdi. Mutaxassislarining fikricha, agar Amu va Sir daryolari suvlari yana avvalgi maromda Orolga oqizib tursa, dengizning o'z asliga qaytishi uchun 20 yil vaqt kerak bo'larkan.



Endi keling, Orol dengizining turli xil paytdagi yuzasining qisqarishi ko'rinishini e'tiborga olsak;

*Orol dengizini birinchi marta A.I. Butakov 1848-1849 yillarda tadqiq etgan va xaritaga tushirgan deb aytsak bo'ladi. 2010-yiliga borib qardoshlar yurtida sathi 3460 kv.km, chuqurligi 130 metrlik bo'lgan ulkan sun'iy dengiz hosil bo'ladi. Uning birinchi navbati 2004-yilda ishga tushirilgan. Umumiy qiymati 6 mlrd AQSh dollariga teng 147 ming monolit,

300 ming kub.metr temir- beton yotqizilishi rejalashtirilgan. Uni “ Oltin asr ko’li” deb nom berishdi. Uning uzunligi 1100 km edi, “Qoraqum” magistral kanali orqali har yili 100 mln.kub metr daryo suvlarini yutib oldi. Shuni ta’kidlash lozimki, orol bo’yida yashovchi aholi sog’lig’i, iqtisodiy, madaniy turmush tarzini salbiy ta’sir etmay qo’ymaydi.

Vaholanki, Orol dengizining qurib ketishning bir qancha sabablari bor, biz uni tassavur qilishimiz qiyin deb o’ylayman. Shuni ta’kidlash joizki, Orol dengizi suv sathi yildan yilga qisqara boshladi; bu suvdan to’g’ri foydalanmaslik, behudaga sarflash, atrof muhitning ifloslanishini ham misol tariqasida keltirish mumkin .

Diqqat bilan sur’atga e’tibor bering, Orolimizning qanday ayanchli ahvolda ekanligini ko’rib turibsiz, juda ham achinarli holatda to’g’rimi biz qanday qilib bunga jim qarab tura olamiz, agar shu tarzda qarab o’tiraversak, ertaga bu o’zimiz uchun ham, kelajak avlod uchun ham qiyin bo’ladi.



Tabiiy muhit holatining insoniyat hayotiga, jonli va jonsiz komponentlarga, kuchli antropogen ta’sirlar, mahalliy, mintaqaviy va umumjahon ekologik muommalarni keltirib chiqaradi. Orol dengizi deyarli “o’lik” dengizga aylandi. Qurib qolgan tubi maydoni 4.2 mln. Gektarni tashkil etib, tutash hududlarga chang, qum- tuzli aerozollarini tarqatish manbaiga aylandi. Bu yerda har yili atmosfera havosiga 80 dan 100 mln. Tonnagacha chang ko’tariladi. Bu degani, Orol dengizi yaqinida yashaydigan aholining sog’lig’iga ham ancha zarar yetkazadi va bu turli xil kasalliklarni keltirib chiqaradi. Shu bilan bir qatorda Amudaryo va Sirdaryo deltalarida yerlarning tanazzulga uchrashi va cho’llashish sur’atlari keskin o’sib bormoqda.

Bu sur’atda Orol dengizining kosmosdagi holati tasvirga olingan. Sur’atda O’zbekistondagi G’arbiy va Sharqiy Orol bilan Qozog’istondagi Kichik Orol ko’llarining bir-birilari ingichka suv yo’llari orqali bilan tutashib turganini ko’rish mumkin.



Endi keling, Orolni asrab qolish haqida to'xtalsak, albatta bu biz juda muhim narsa hisoblanadi. Muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich janobi oliylari Orol dengizidagi



muommoli vaziyatni o'rganish uchun, ular shaxsan o'zlari Qoraqalpog'iston respublikasining Mo'ynoq tumaniga tashrif buyurdilar.

Prezidentimiz o'z tashabbuslarini qo'yib, Orol dengizni qutqarish bo'yicha bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirdilar. Va o'z taklif va tavsiyalarini berdilar; Orolni qurigan qismi ya'ni janubiy qirg'oqlarida sun'iy damba qurib, "Yashil bog'" hosil qilishni shuningdek, ichimlik suvini aholiga quvurlar orqali yetkazib berish va sanitar-epidemiologik ahvolini yaxshilashga, shuningdek, yer osti chuchuk suvidan foydalanishga ham e'tibor qaratildi



Darhaqiqatki, bu fojia faqat bizning davlatimiz bilan cheklanib qolmasdan, shuningdek, bir qator rivojlangan mamlakatlarning ham muommosiga aylandi.

Biz yoshlar Orol dengizini asrab qolaolamizmi shu savolga etibor qaratsak, albatta bu bizning qo'limizdan keladi, negaki, bizdek yoshlar Orol dengizni qutqarish bo'yicha ko'plab fikr g'oyalariga egamiz. Orol suvini qanday qilib saqlab qolish, atrof-muhit ekologiyasini yaxshilashga, eng qimmatli ne'matimizdan to'g'ri foydalanishga doir bir qator taklif va tavsiyalarga egamiz. Joriy yilning 12-15 oktyabr kunlari Toshkent Moliya institutining ko'ngilli rahbariyati, ishchi-xodim tyutor va talaba – yoshlari "Yoshlar Orolni asraydi" aksiyasi doirasida hamda "Vatan bo'ylab sayohat" shiori ostida Qoraqalpog'iston Respublikasi Mo'ynoq tumaniga tashrif buyurishdi.



Izoh: Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar.

O'zbekiston Respublikasi
Konstitutsiyasi 62-moddasi.



Hurmatli aziz bilimga chanqoq, serg'ayrat, ijodkor yigit-qizlar birgalikda keling, Orolimizni qutqarish maqsadida birgalikda harakat qilaylik, o'z taklif va tavsiyalarimizni inobatga olgan holda ommaga e'lon qilaylik. Zero shu orqali biz o'z kelajagimizni ya'ni bizga aziz bo'lgan Orolimizni bu falokatdan qutqarib qolaylik. Shuni aytish mumkinki, bu kelajak avlod uchun ham o'rnak bo'ladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Orol fojiasini yaxshilashga doir yangidan-yangi g'oyalar shuningdek, takliflar aytib o'tilyapti. O'ylaymanki siz aziz yoshlar bu muammoli vaziyatga befarq bo'lmaysiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Kun.uz sayti.
- 2.Qahramon Rajabov. Akbar Zamonov.
10- sinf O'zbekiston tarixi. Toshkent -2017 yil.
- 3.Daryo.uz sayti.
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.